

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

NURONIYLAR SIHAT-SALOMATLIGINI TA'MINLASH YO'LIDA

Yormatov Faxriddin Joylovovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini
mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

faxriddinyormatov73@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda nuroniylarning sihat-salomatliklarini ta'minlash borasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar hamda ushbu chora-tadbirlardan kelib chiqib amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada shuningdek, nuroniylarni tibbiy dori-darmonlar hamda kerakli jihozlar bilan ta'minlash borasida bajarilayotgan ishlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, nuroniy, sihat-salomatlik, keksa avlod, nogironlar, ijtimoiy himoya, turmush tarzi, davolash, konstitutsiya, tizim.

НА ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ СВЕТОВ

Аннотация: В данной статье содержится информация о разработанных в нашей стране мерах в плане обеспечения здоровья ученых светил и работе, проводимой на основе этих мер. Также в статье описывается проводимая работа по обеспечению священнослужителей медицинскими препаратами и необходимым оборудованием.

Ключевые слова: Узбекистан, ученые светила, здоровье, пожилое поколение, люди с ограниченными возможностями, социальная защита, образ жизни, лечение, Конституция, система.

ON THE WAY OF PROVIDING THE HEALTH OF LIGHTS

Abstract: This article contains information about production measures to ensure the health of luminaries in our country, as well as information about the work carried out as a result of these measures. In the article, the work of provisioning, which is carried out to provide the religious with medical drugs, is expressed.

Key words: Uzbekistan, enlightened, health, elderly generation, disabled people, social protection, lifestyle, treatment, constitution, system.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Inson qadrini ulug‘lash, ularning hayotdan rozi bo‘lib yashashini ta‘minlash davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. So‘nggi yillarda yurtimizda boshqa sohalardagidek, keksa avlod vakillarini chuqur ijtimoiy himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida ham amalga oshirilgan ishlar yuqori bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, nuroniylarimiz sihat-salomatliklarini himoya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Muhim ahamiyatga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-fevraldagi 31-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish va uning uchun haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” [2]gi qaroriga ko‘ra I va II guruh nogironlari, bolalikdan nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda Chernobil Aesidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar Tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to‘lovidan ozod qilindi.

Bundan tashqari, 2016-yil 26-dekabrda O‘RQ-415-sonli “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni[3] qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentyabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [4]gi qarorining imzolanishi ham yurtimizda keksalarga hukumat tomonidan qanchalik e‘tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 28-dekabr kuni “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori[5]ning qabul qilinishi ham xonadonimiz fayzi bo‘lgan nuroniylarga bo‘lgan e‘tiborning yaqqol namunasidir.

Hujjatlarga berilgan rasmiy sharhda keltirilishicha, O‘zbekistonda 2010-2015 yillar mobaynida keksalar va pensionerlar uchun mo‘ljallangan 12 ta Saxovat va Muruvvat internat uylari moddiy-texnika bazalari, 14,6 ming yolg‘iz keksalar, pensioner, nogironlarning turar joy sharoitlari yaxshilandi, 5,4 ming odam reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta‘minlandi,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sogʻliqlarini tiklashdi. Koʻrsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132, 2 milliard soʻmni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oʻtkazilgan oʻrganish ishlari Nuroniy” jamgʻarmasi davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, yolgʻiz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning manzilliligini taʼminlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolgʻiz keksalarga koʻrsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini koʻtarishni, shuningdek joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish imkonlarini taʼminlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini koʻrsatdi.

Keksalarni qoʻllab-quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida toʻlaqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni taʼminlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirish uchun qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorida quyidagilar koʻzda tutilgan:

kasalliklarni oʻz vaqtida aniqlash va davolash uchun 2,8 million keksa yoshdagi fuqarolarning barchasi ixtisoslashtirilgan tibbiy brigadalar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy koʻrikdan oʻtkazilishini taʼminlash;

biriktirilgan patronaj hamshiralari tomonidan salomatliklari ustidan doimiy nazorat orqali keksa yoshdagi fuqarolar orasida kasalliklar profilaktikasi choralarini kengaytirish, 15,5 ming yolgʻiz keksalarning turmush sifatini va turmush darajasini ularga shaxsiy ijtimoiy xodimlarni biriktirish orqali oshirish;

keksa yoshdagi shaxslarni ularga toʻlovsiz asosda davolash va sogʻlomlashtirish. Shu munosabat bilan respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlariga 20 ming va viloyatlardagi tibbiyot muassasalariga 215 mingdan ziyod, jami 178,9 milliard soʻm miqdoridagi orderlar ajratish koʻzda tutilgan;

urush va mehnat faxriylari, yolgʻiz pensionerlar va nogironlar salomatligini har yil bu kontingentga kirgan 34 ming odamni 18 milliard soʻm miqdorida sanatoriya-davolash muassasalarida bepul sogʻlomlashtirish yoʻli bilan salomatliklarini yaxshilash;

Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida keksalar, nogironlar hamda urush va mehnat faxriylari uchun 3 ta yangi sanatoriy qurish va ularni jihozlash yoʻli bilan qoʻshimcha 50 mingdan ziyod pensioner va nogironlarning sanatoriya

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

muassasalarida bepul sogʻlomlashtirilishini tashkillashtirish. Ushbu maqsadni amalga oshirish ishlariga davlat byudjeti hisobidan 13,5 milliard soʻm ajratish;

imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush sifatini, har yil bu kontingentga kirgan 10 ming odamni jami 2,5 milliard soʻm miqdoridagi zarur protez-ortopediya buyumlari va texnik rehabilitatsiya vositalari bilan taʼminlash hisobidan oshirish;

oʻzgarlar parvarishiga muhtoj yolgʻiz keksalar va nogironlar turmush darajasi va sifatini har yil ushbu kontingentga kirgan 4 ming odamni umumiy miqdori 3,2 milliard soʻm boʻlgan asosiy oziq-ovqatlar, gigiena vositalari bilan taʼminlash yoʻli bilan oshirish;

1941–1945 yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriylarda har yili sogʻlomlashtirish kursidan oʻtish oʻrniga yoʻllanmaning oʻrtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqini berish;

yolgʻiz va kam taʼminlangan keksa fuqarolarni umumiy miqdori 6,4 milliard soʻm hajmidagi qishki kiyim komplekti va poyafzal, shuningdek qishga gʻamlash uchun qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bilan har yili taʼminlash;

Andijon, Buxoro, Samarqand va Fargʻona viloyatlarida ochiq yurakda jarrohlik operatsiyalarini oʻtkazish uchun umumiy summasi 9,7 milliard soʻm boʻlgan hududlararo kardioxirurgik markazlar yaratish;

tuman (shahar)lardagi barcha tibbiyot birlashmalari va muassasalarini, shuningdek barcha viloyatlardagi onkologiya dispanserlarini umumiy miqdori 108,7 million AQSh dollariga teng boʻlgan tegishli zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash;

keksalar va nogironlarning 23 ta Saxovat va Muruvvat uy-internatlari moddiy-texnika bazasini umumiy miqdori 207 milliard soʻmga teng hajmda mustahkamlash.

Dasturni moliyalashtirishga 688,2 milliard soʻm yoʻnaltiriladi, shuningdek xalqaro moliyaviy tuzilmalarning 108,7 million AQSh dollari hajmidagi kredit va grant mablagʻlarini jalb etish koʻzda tutilgan.

Bugun hayotimizning oʻzi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – *inson manfaatlarini har tomonlama taʼminlash* masalasini dolzarb vazifa qilib qoʻymoqda. Inson manfaatlarini taʼminlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. *Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak* va bu haqiqatni avvalo barcha boʻgʻindagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”[6].

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

2022-yil 17-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”[7]gi farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2022-yil 20-dekabrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga qilingan Murojaatnomada “Biz, bu yil tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste‘mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqdik. Misol uchun, 2017-yilda kam ta‘minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo‘lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko‘mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar esa, 7 baravar ko‘paytirilib, yiliga 11 trillion so‘mga yetdi. Biz ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosatini izchil davom ettiramiz. Har bir raqam ortida mashaqqatli mehnat yotibdi” ”[8] deya alohida ta‘kidladi.

Xulosa shuki, Yangi O‘zbekistonda nuroniylarning sihat-salomatliklarini himoyalash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ishlari o‘zining ijobiy natijasini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 2017 yil 15 yanvar.

2. <https://lex.uz/docs/2718856>

3. <https://lex.uz/uz/docs/-3083192>

4. <https://lex.uz/docs/-4532381>

5. <https://lex.uz/docs/2898879>

6. Jamiyat 2016.29.12

7. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022 yil 18-fevral.

8. <https://oz.sputniknews-uz.com/20221220/shavkat-mirziyoev-30885939.html>